


3. Web sahifaga ro'yxat joylashtirish. Aniqlash ruyxati(Spiski opredeleniy)



Image not found or type unknown



HTML tilida markerli ro'yxatni tashkil qilish uchun quyidagi

teglardan foydalaniladi:

< UL>

< LI> buxgalteriya

< LI> moliya

< /UL>

ro'yxatdagi xar bir satr < **LI**> tegi bilan ajratib yoziladi. Yopiluvchi satrli < **/LI**> teglarni yozish shart emas, lekin qoida bo'yicha yozilishi kerak.


< **UL**> tegi quyidagi parametrlarga ega :

< **UL TYPE=disc** yoki **circle** yoki **square**>

disc - doira

circle - aylana

square - kvadrat



< **OL**>

< **LI**> yunalishlar

< **LI**> guruxlar

< **/OL**>

ifoda ekranda quyidagi natijani beradi:

Bunday ro'yxatlarni brauzer avtomatik nomerlaydi. Yopiluvchi satrli < **/LI**> teglarni yozish shart emas, lekin qoida bo'yicha yozilishi kerak.

< **OL**> tegi quyidagi parametrlarga ega :

< OL TYPE=A yoki a yoki I yoki i yoki 1 START=n >

Bu erda **TYPE** xisoblagich sifatida :

A - katta lotin harflari (A,B,C...)

a - kichik lotin harflari (a,b,c...)

I - katta Rim harflari (I,II,III...)


i - kichik Rim harflari (i,ii,iii...)

1 - oddiy raqamlar (1,2,3...)

START=n - sanoq qaysi son dan boshlanishini ko'rsatadi.

Qo'shilgan (aralash) ro'yxatlar

Yuqorida ko'rib o'tilgan ro'yxatlar bir-biriga aralashgan holda xam uchrashi mumkin. U xolda tegishli teglardan tartib bo'yicha foydalaniladi. Qo'yida kichik misolning natijasini ko'rishimiz mumkin:



< OL >

< LI > yunalishlar:

< UL > < LI > buxgalteriya

< UL > < LI > 101 < LI > 102 < /UL >

< /UL >

< LI > guruxlar:

< UL> < LI> 101

< UL> < LI> Nosirov

< LI> Ibroximjon

< /UL>


< /UL>

< /OL>

Aniqlik ro'yxatlari

Aniqlik ro'yxatlari

tegidan boshlanib tegi bilan tugaydi. Bu ro'yxatlar biror uchrashuv yoki tadbirlar va ularning mazmunini yoritish uchun ishlatiladi:



< DL>

< DT> < B> Marketing bo'limi < /B>

< DD> Bu bo'lim mahsulotlarni harakati va xizmat ko'rsatish bilan shugullanadi.

< DT> < B> Moliya bo'limi < /B>

< DD> Bu bo'lim barcha moliyaviy xizmatlar bilan shug'ullanadi.

< DT> < B> Kadrlar bo'limi < /B>

< DD> Bu bo'lim xizmatchilar xisobi va yangi ishchilar qabuli bilan shug'ullanadi.

< /DL>

Taxrirlashning muallif uslubi

Xujjat matnlarini qaytarilgan probellar va yangi satrga o'tishlarni tuzatgan xolda brauzerning o'zi bir shaklga tushiradi. Agar < **pre**>...< /**pre**> teglari qo'llanilsa barcha probellar o'z o'rnida saqlanib qoladi va satrlar HTML manba faylida qanday bo'lsa, shundayligicha qoladi.

< **pre**> da ishoratlardan ham foydalansa bo'ladi. Biroq < **pre**> bilan ishlashda formatlashning boshqa uslublaridan foydalanishdan qochish kerak.

Formatlashning fizik uslubi.

Xarflarning turli format ko'rinishlari quyidagi teglar yordamida aniqlanadi:

Uslub

Natija

< b> qalin xarf < /b>

qalin xarf

< i> og'gan xarf < /i>

og'gan xarf

< s> ustiga chizilgan < /s>

~~ustiga chizilgan~~

< u>ostiga chizilgan< /u>

Ostiga chizilgan

< tt>fiksirlangan< /tt>

Fiksirlangan

< sup>daraja < /sup>

X^{daraja}

< sub>indeks < /sub>

X_{indeks}

< big>kattalashtirilgan< /big>


kattalashtirilgan

< small>kichiklashtirilgan< /small>

Kichiklashtirilgan

Formatlash teglari bir-birini ichida qo'lanilishi ham mumkin:

< b> < i> < u> ***aralash yozuv*** < /u> < /i> < /b>



natijada ekranda quyidagi ko'rinish xosil bo'ladi:

aralash yozuv

Satrlarni uzilishi

< BR> tegidan foydalanib abzass ichida yangi satrga o'tishni ta'minlash mumkin:

< P> Toshkent < BR> Frankfurt < /P>

satri ekranda quyidagini xosil qiladi:

Brauzerdagi satr uzilishlarini bekor qilish uchun < **nobr**>...< /**nobr**> tegidan foydalaniladi.

Ssitata

Buning uchun

< **BLOCKQUOTE**>..... < /**BLOCKQUOTE**>